



INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA NOGIRONLIGI BO'LGAN TALABALARNI TA'LIM JARAYONIGA JALB ETISH VA QO'LLAB- QUVVATLASH MEXANIZMLARI

Ahtamova Adiba Mirzohidovna

Navoiy davlat universiteti, San'at va sport fa'kulteti

*Pedagogika nazariyasi va tarixi magistratura mutaxassisligi 1-kurs
magistranti*

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan talabalarni qo'llab-quvvatlash va inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning mohiyati, tarixiy va nazariy asoslari, shuningdek, nogironligi bo'lgan talabalar uchun stipendiya ustamalari, moddiy rag'batlantirish va yotoqxona imtiyozlari kabi ijtimoiy va moddiy kafolatlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda psixologik-pedagogik sharoit yaratish, pedagoglar tayyorlash, ota-onalar bilan hamkorlik va ta'lim muhitini moslashtirishning ahamiyatini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *Nogironligi bo'lgan talabalar, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy imtiyozlar, stipendiya ustamalari, moddiy rag'batlantirish, yotoqxona imtiyozlari, ta'limda teng huquqlilik, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, oliy ta'lim, ta'lim muhitini moslashtirish.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы поддержки студентов с ограниченными возможностями и развития инклюзивного образования в Республике Узбекистан. Анализируются суть и историко-теоретические основы инклюзивного образования, а также социальные и материальные гарантии для студентов с инвалидностью, включая повышенные стипендии, материальное стимулирование и льготы по проживанию. Результаты исследования подчеркивают значимость создания психолого-педагогических условий, подготовки кадров, сотрудничества с*



родителями и адаптации образовательной среды для повышения эффективности инклюзивного обучения.

Ключевые слова: Студенты с инвалидностью, инклюзивное образование, социальные льготы, повышенные стипендии, материальное стимулирование, льготы по проживанию, равные права в образовании, психолого-педагогическая поддержка, высшее образование, адаптация образовательной среды.

Abstract: The article examines the support of students with disabilities and the development of inclusive education in the Republic of Uzbekistan. It analyses the essence and historical-theoretical foundations of inclusive education, as well as social and material guarantees for students with disabilities, including scholarship bonuses, financial incentives, and dormitory benefits. The study highlights the importance of creating psychological and pedagogical conditions, training specialists, collaborating with parents, and adapting the educational environment to enhance the effectiveness of inclusive learning.

Keywords: Students with disabilities, inclusive education, social benefits, scholarship bonuses, financial incentives, dormitory benefits, equal educational rights, psychological-pedagogical support, higher education, adaptation of educational environment.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan talabalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator ijtimoiy va moddiy imtiyozlar joriy etilgan. Ushbu imtiyozlar ularning oliy ta'limga teng huquqli kirishini, ta'lim jarayonida barqaror ishtirok etishini hamda ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Mamlakatimizda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilingach, nogironligi bo'lgan talabalarning to'siqsiz va sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, inklyuziv ta'lim tushunchasi ilk bor qonunlar hamda qonunosti hujjatlariga rasman kiritildi va amaliyotga joriy etila boshlandi.



Inklyuziv ta'lim — alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini inobatga olgan holda, barcha ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratilishini nazarda tutuvchi ta'lim jarayonidir. Ushbu ta'lim shakli har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlariga moslashgan ta'lim muhitini yaratishga yo'naltirilgan.

Sharq mutafakkirlari — Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy hamda Abdulla Avloniylarning tarbiya maqsadlari va har bir bola shaxsining rivojlanishida ta'limning hal qiluvchi ahamiyati haqidagi qarashlari bugungi inklyuziv ta'lim konsepsiyasining metodologik asosini tashkil etadi. Ushbu allomalarning fikricha, tarbiya va ta'lim inson shaxsini kamol toptiruvchi eng muhim omil bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining bosh mezonidir.

Uzoq yillar davomida imkoniyati cheklangan talabalarni oliy ta'lim muassasalaridan alohida holda maxsus segregatsion muassasalarda o'qitish eng samarali yo'l, deb hisoblab kelindi. Biroq XX asrning 70–80-yillariga kelib, jahon miqyosida insonparvarlik, teng huquqlilik va kamsitmaslik g'oyalarining rivojlanishi natijasida maxsus ehtiyojli talabalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Natijada, ularni jamiyatdan ajratmasdan, oliy ta'lim tizimiga jalb etish zaruriyati yuzaga keldi.

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik metodlaridan foydalanildi. Inklyuziv ta'lim tizimida nogironligi bo'lgan talabalarni o'qitish va tarbiyalash muammolari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida L.M.Kryjanovskayaning “Inklyuziv ta'lim sharoitida psixologik korreksiya” nomli asari mantiqiy-tahliliy manba sifatida o'rganildi.

Muhokama va natijalar. Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi asosiy maqsad va vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

- ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun zarur bo'lgan psixologik-pedagogik va korreksion sharoitlarni yaratish;
- talabalarning individual imkoniyatlariga moslashtirilgan umumta'lim dasturlari asosida ularning ruhiy rivojlanishini va ijtimoiy moslashuvini ta'minlash;



- ta'lim olishda teng huquqlilikni kafolatlash;
- oila va jamiyat hamkorligida nogiron va sog'lom talabalarning ehtiyojlarini qondirish;
- imkoniyati cheklangan talabalarning oiladan ajralmagan holda yashash va ta'lim olish huquqini ta'minlash;
- jamiyatda ularga nisbatan mehr-shafqatli va ijobiy munosabatni shakllantirish.

Inklyuziv ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi. Ushbu tizimning asosiy maqsadi – nogironligi bo'lgan shaxslar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etib, ochiq va teng imkoniyatli ta'lim muhitini yaratishdir.

Inklyuziv ta'limning muammolari. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limni joriy etish jarayonida bir qator muammolar mavjud:

- imkoniyati cheklangan talabalarga nisbatan salbiy munosabat;
- ularning jamiyat va maktab hayotida "ko'rinmasligi";
- moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi;
- xonlarda talabalar sonining ko'pligi;
- kadrlar tayyorlashdagi muammolar;
- jismoniy muhitning moslashtirilmaganligi;
- qashshoqlik, jinsiy tafovutlarga asoslangan kamsitish;
- favqulodda vaziyatlar, mojarolar va migratsiya oqibatlari.

Salbiy munosabat inklyuziv ta'lim yo'lidagi eng katta to'siq bo'lib, bu otalar, pedagoglar va jamiyat a'zolarining maxsus ehtiyojli talabalar haqidagi noto'g'ri tasavvurlari bilan bog'liqdir. Ko'plab hollarda bunday talabalar uyda yashiriladi, ro'yxatga olinmaydi va natijada ular ta'lim-tarbiya jarayonidan chetda qoladi.

L.S.Vigotskiy imkoniyati cheklangan talabalar rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, bolaning nuqsoni



uning imkoniyatlarini cheklab qo‘ymaydi, balki to‘g‘ri tashkil etilgan muhit orqali u o‘z salohiyatini namoyon etishi mumkin.

Psixolog L.M.Kryjanovskaya esa inklyuziv ta‘limda psixologik korreksiya usullarining ahamiyatini asoslab beradi. Uning ta‘kidlashicha, ta‘lim jarayonining samaradorligi pedagog, psixolog va ota-onalar o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka bog‘liq.

O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan talabalar uchun bir qator ijtimoiy va moddiy imtiyozlar joriy etilgan. Ular ta‘limga teng huquqli kirish, barqaror ishtirok va ijtimoiy moslashuvni ta‘minlaydi. I va II guruh nogironligi bo‘lgan talabalar bazaviy stipendiyaga 50 % ustama oladi (oyiga o‘rtacha 854 502 so‘m). Ustamali stipendiya olish uchun nogironlik hujjatini buxgalteriyaga taqdim etish kifoya. Ikkinchi mutaxassislik bo‘yicha o‘qiyotgan talabalar ham ushbu imtiyozga ega.

Talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi” orqali semestr yakuni bo‘yicha a‘lo natija ko‘rsatgan talabalar (shu jumladan nogironligi bo‘lganlar) bazaviy stipendiyaning 20 % miqdorida qo‘shimcha yordam oladi. Alohida iqtidor va innovatsion loyiha ko‘rsatganlar uchun 50 % bir martalik moddiy yordam belgilanishi mumkin.

I guruh nogironlari davlat hisobidan bepul, II guruh nogironlari esa to‘lovning 50 % miqdorida yashaydi. Ushbu imtiyozlar inklyuziv ta‘lim tizimida nogironligi bo‘lgan talabalarning teng huquqli ta‘lim olishini, barqaror ishtirokini va ijtimoiy integratsiyasini ta‘minlaydi.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, imkoniyati cheklangan talabalarning nuqsonini erta aniqlash, mutaxassislar ko‘magida ular bilan tizimli ish olib borish hamda kasbga tayyorlash jarayonini o‘z vaqtida tashkil etish inklyuziv ta‘lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shu sababli:

- inklyuziv ta‘limni joriy etishda ijtimoiy ongni o‘zgartirish;
- pedagog kadrlarni maxsus tayyorlash;
- ta‘lim muhitini moslashtirish;



– ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish asosiy vazifa sifatida qaralishi lozim.

Natijada inklyuziv ta'lim jamiyatda tenglik, adolat va insonparvarlik tamoyillarining qaror topishiga xizmat qiladi hamda har bir bolaning shaxs sifatida to'laonli rivojlanishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi. (2020, 15-oktabr). *Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida* (O'RQ-641-son)
2. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // «Проблема дефектологии». М., 1996. –С. 42.
3. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.: «Владос», 2013. 83-б.
4. Ibragimova Sh.T. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish prinsiplari // Maktabgacha va maktab ta'limi. Ilmiy jurnal. – Volume 3, Issue 4/2025. ISSN: 3060-4613. – B.6-10.
5. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.
6. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.